



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 4 (6)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

4

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....	8
Mamatov B.S. Foreign investment is an important factor of economic growth.....	15
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....	22
Karimov Sh.X. Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....	26
Raximov D.Sh. To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....	30
Rashidova K. Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....	32
Хакимов Д.Р. Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....	37
Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N. O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejankor texnologiyalarni joriy etish masalalari.....	42
Valikulov Sh.Z. O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....	48
Ganieva L.S. Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	52
Axrorova N.U. Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....	56
Kamilova A.N. Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....	61
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....	66
Abdiyeva D.K. Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....	69
Xalimova N.J. Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....	74
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	78
Zaxirova G., Shavkatova N.O’. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....	82
Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H. Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....	86
Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A. Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlar tahlili.....	89
Xasanov I.M. O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarning transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....	94
Abdullayev M.G’. Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxona samaradorligiga ta’siri.....	101
Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К. Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....	105
Абдуғаниев Ё.Ж. Яшил иқтисодиёт - барқарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....	112
Xusanboyeva T.M. Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....	116
Xashimova S.N. O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....	120
Mitillayev I.T. Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	124
Бобоқулова М.Ғ. Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....	127
Bekberganova M.R. “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....	134
Рахимова М.Ш. Модернизация системы социальной защиты.....	138
Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....	142
Djumanova R.F. Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....	147
Mamatov B.S., Umurzakova M.N. Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari.....	154
Ешимбетов У.Х. Қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этиш ва иқтисослаштиришнинг илмий асослари.....	158
Xodjaeva F.K. Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....	167
Yusupova M. Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	171
Abduxalilov B.Z. O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....	175
Abdisamatov A.A. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	178

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Abdusalomov I.J. Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta'siri.....	182
Amirov L.F., Sokhibjonova S.S. Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....	185
Boltaxo'jayeva I.O'. Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....	191
Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G. Korxonalarda bo'nak to'lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta'siri va ularni optimallashtirish bo'yicha tahliliy yondashuvlar.....	195
Isoqova M.A. O'zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....	199
Mamadaliyev B., Teshaboyev J. Korxonalarda mehnatga haq to'lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo'llari.....	202
Poziljonov M., Teshaboyev X. Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	206
Rustamova F.A. Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....	209
Tursunboyev Q.O. Transport xizmatlari ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	213
Umarov T.S. Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellash va prognozlash.....	216
Xo'jaliyev A.O., Avilov N. Moliyaviy natijalar hisobi va auditda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....	220
Xomidov T.T., Arziboyeva R.S. Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....	223
Xusainov M. Sanoat korxonalarida mahsulot tannaxsini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish.....	227
Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R. Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..	231
Gulimboyev S.I. Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....	235
Ibodov J.Q. Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo'g'inlari.....	239
Jumabayeva K.B. Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....	243
Khusanova Z.R., Yo'ldasheva Z.U. Global trends in the development of international tourism services....	249
Sadullayev M.D. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....	252
Tilabov N.T. Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	256
Toshtemirov Y.N. O'zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....	264
Toshtemirova Z.M. Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....	268
Uralov E.O. Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....	273
Xursanova F.Sh. Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni.....	278
Yuldasheva G.A. Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli	282
Абдуллаева Р. Тadbirkorlikning zamonaviy kuryentlari.....	287
Юлдашев А. Фаргона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари	292
Abdumalikova Z., Razakova B.S. O'zbekiston sug'urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo'nalishlar.....	294
Azimov B.F. Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....	300
Begaliyeva M.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....	304
Dawletmuratov A.M. Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish mexanizmlari.....	308
Karimova L.S., Jabborov A.A. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	313
Maxmudov F.U. Oliy ta'lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	319
Navruz-zoda L.B. Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo'lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....	323
Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T. Chorvachilik tarmog'ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....	327

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Nurmirezayeva N.R. Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....	331
Rahimov A.M. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....	335
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....	339
Ravshanova M.M. Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....	343
Ro‘ziboyeva M. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....	347
Saidova F.K., O‘rozov Sh. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....	350
Sultonov S.N. Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	354
Sultonova D.U. Korxona iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....	358
To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z. Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiqu.....	362
Tursunova N.U. Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....	368
Акрамова Г.А. «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....	374
Болтаев Ж.А. Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..	379
Жунайдуллаев М.А. Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....	384
Митрушова М.Л. Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....	388
Муродов О.У. Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....	392
Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А. Рақамли трансформация шароитида енгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....	396
Sarkarov S.Z. O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....	401
Minojiddinova N.M. Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	406
Ruzmetova I.Y. Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....	410
Qudratov D., Ismoilov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....	414
Qodirov H.D. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....	417
Kinjayev K.N. Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....	421
Макушина А.Ю. Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....	424
Rejapov X.X., Oxunjonova K.K. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida.....	430
Махкамова Н.С. Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития	434
Avilov N., Muhammadova G. Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....	441
Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S. O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....	444
Yusupova M.B. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....	447
Toshpo‘latov M.A. Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...	452
Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H. Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....	458
Хамракулов С.М. Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....	461
Zayavitdinova N.M. Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	465
Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....	469
Ботирова З.Қ. Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....	475
Бегимова Н.К. Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....	481

**MAHALLA INSTITUTINING IQTISODIY INTEGRATSIYA JARAYONLARIDAGI
STRATEGIK AHAMİYATI**

**СТРАТЕГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИНСТИТУТА МАХАЛЛЫ В ПРОЦЕССАХ
ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ИНТЕГРАЦИИ.**

**STRATEGIC IMPORTANCE OF THE MAHALLA INSTITUTE IN ECONOMIC
INTEGRATION PROCESSES**

Toshtemirova Zilola Madaminjonovna

Andijon viloyati, University of Economics and Pedagogy” NOTM,
“Iqtisodiyot” kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati institutsional iqtisodiyot, ijtimoiy kapital nazariyasi hamda zamonaviy lokal boshqaruv yondashuvlari asosida tadqiq etilgan. Tadqiqotda mahalla davlat, bozor va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni muvofiqlashtiruvchi gibrıd institut sifatida baholangan. Mahalla tizimining resurslarni manzilli taqsimlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, bandlikni ta‘minlash, kambag‘allikni qisqartirish va hududiy rivojlanishni rag‘batlantirishdagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, mahalla institutining iqtisodiy integratsiyadagi strategik roli xalqaro ilmiy yondashuvlar bilan qiyosiy tahlil asosida yoritilgan. Tadqiqot natijalari mahallaning inklyuziv iqtisodiy o‘rish va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashdagi institutsional salohiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: mahalla, iqtisodiy integratsiya, institutsional iqtisodiyot, ijtimoiy kapital, lokal boshqaruv, inklyuziv iqtisodiy o‘rish, hududiy rivojlanish, tadbirkorlik

В данной статье стратегическое значение института махалли в процессах экономической интеграции исследовано на основе теории институциональной экономики, концепции социального капитала и современных подходов к локальному управлению. В исследовании махалля рассматривается как гибридный институт, координирующий взаимодействие между государством, рынком и обществом.

Научно обоснована роль системы махалли в адресном распределении ресурсов, развитии предпринимательства, обеспечении занятости, сокращении бедности и стимулировании территориального развития.

Кроме того, стратегическая роль института махалли в экономической интеграции раскрыта на основе сравнительного анализа с международными научными подходами. Результаты исследования показывают, что институциональный потенциал махалли в обеспечении инклюзивного экономического роста и социальной стабильности является высоким.

Ключевые слова: махалля, экономическая интеграция, институциональная экономика, социальный капитал, локальное управление, инклюзивный экономический рост, территориальное развитие, предпринимательство.

This article examines the strategic importance of the mahalla institution in the processes of economic integration based on the theory of institutional economics, the concept of social capital, and modern approaches to local governance. The study considers the mahalla as a hybrid institution that coordinates interactions between the state, the market, and society.

The role of the mahalla system in the targeted allocation of resources, development of entrepreneurship, promotion of employment, reduction of poverty, and stimulation of regional development is scientifically substantiated.

In addition, the strategic role of the mahalla institution in economic integration is revealed through a comparative analysis with international scientific approaches. The research findings indicate that the institutional potential of the mahalla in ensuring inclusive economic growth and social stability is high.

Keywords: mahalla institution, economic integration, institutional economics, social capital, local governance, inclusive economic growth, regional development, entrepreneurship.

Hozirgi globallashuv va iqtisodiy transformatsiya sharoitida iqtisodiy integratsiya jarayonlari nafaqat makroiqtisodiy darajada, balki mahalliy boshqaruv institutlari doirasida ham muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiy integratsiya davlat, bozor va jamiyat institutlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, manfaatlar va resurslar uyg‘unligini ifoda etuvchi murakkab tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston sharoitida mahalla instituti iqtisodiy integratsiyaning mahalliy darajadagi samarali mexanizmlaridan biri hisoblanadi[1]. Mahalla instituti tarixan shakllangan ijtimoiy birlik bo‘lishi bilan birga, zamonaviy bosqichda davlat siyosatini joylarda amalga oshirish, ijtimoiy himoya choralari manzilli yetkazish, aholi bandligini ta‘minlash va tadbirkorlikni rag‘batlantirishda muhim institutsional vosita sifatida faoliyat yuritmoqda. Bu jihat mahalla tizimini oddiy hududiy yoki ma‘muriy birlik sifatida emas, balki ko‘p funksiyali ijtimoiy-iqtisodiy institut sifatida baholash zaruratini yuzaga keltiradi [2]. Institutsional iqtisodiyot nazariyasiga ko‘ra, iqtisodiy rivojlanish samaradorligi ko‘p jihatdan rasmiy va norasmiy institutlarning uyg‘un faoliyatiga bog‘liq. Amerikalik mashhur iqtisodchi olim D. North institutlarni iqtisodiy jarayonlarni tartibga soluvchi “o‘yin qoidalarini” sifatida talqin qiladi [3]. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, mahalla instituti rasmiy boshqaruv mexanizmlari bilan norasmiy ijtimoiy kapital, ishonch va hamkorlik tamoyillarini birlashtiruvchi gibril tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi [4;5]. Aynan shu xususiyat mahallaning iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyatini belgilaydi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy islohotlar sharoitida mahalla institutining iqtisodiy funksiyalari sezilarli darajada kengayib bormoqda [6]. Aholining ehtiyojmand qatlamlarini aniqlash, ularni iqtisodiy faollikka jalb etish, oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, hududiy muammolarni tezkor aniqlash va manzilli hal etish kabi vazifalar aynan mahalla darajasida amalga oshirilmoqda. Bu esa mahallani iqtisodiy integratsiya jarayonining strategik subyekti sifatida chuqur tadqiq etishni talab qiladi. Mazkur maqolaning maqsadi mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyatini institutsional, iqtisodiy va ijtimoiy yondashuvlar asosida tahlil qilish hamda uning samaradorligini oshirishga doir ilmiy xulosalar va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotda institutsional, tizimli va qiyosiy yondashuvlardan foydalanildi[7]. Xususan, institutsional tahlil usuli mahalla institutining rasmiy va norasmiy funksiyalarini aniqlashga xizmat qildi. Tizimli yondashuv orqali mahallaning davlat, bozor va jamiyat o‘rtasidagi aloqalarni muvofiqlashtirishdagi o‘rni yaxlit holda o‘rganildi. Qiyosiy tahlil asosida mahalla modeli xalqaro lokal boshqaruv institutlari bilan taqqoslandi [8;9]. Shuningdek, ilmiy adabiyotlar, nazariy manbalar va mavzuga oid tahliliy qarashlar kontent tahlili yordamida umumlashtirildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini institutsional iqtisodiyot, ijtimoiy kapital nazariyasi, participatory governance va inklyuziv iqtisodiy o‘sish konsepsiyalari tashkil etdi [10;11;12].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mahalla instituti zamonaviy transformatsiya sharoitida iqtisodiy integratsiya jarayonlarining muhim institutsional bo‘g‘ini sifatida shakllanmoqda[13]. U nafaqat ijtimoiy boshqaruv subyekti, balki hududiy iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantiruvchi, resurslarni safarbar etuvchi va turli darajadagi subyektlar (davlat – biznes – jamiyat) o‘rtasida samarali aloqalarni ta‘minlovchi ko‘p funksiyali tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda. Olingan ilmiy natijalar asosida mahalla institutining iqtisodiy integratsiyadagi roli quyidagi asosiy tizimli yo‘nalishlarda namoyon bo‘lishi aniqlandi:

- *Gibril institutsional tabiati* – mahalla davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi oraliq bo‘g‘in sifatida faoliyat yuritib, markazlashgan va desentralizatsiyalashgan boshqaruv mexanizmlarini uyg‘unlashtiradi. Bu esa qaror qabul qilish jarayonida moslashuvchanlik va samaradorlikni oshiradi.

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” jurnali 4-son 2026 yil

-Ijtimoiy kapitalni shakllantirishdagi roli – mahalla doirasida ishonch, hamkorlik va o‘zaro yordam munosabatlari shakllanib, iqtisodiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy muhit yaratiladi. Bu holat kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik rivojiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

-Bandlik va tadbirkorlikni rivojlantirish mexanizmlari – mahalla “temir daftar”, “ayollar daftari”, “yoshlar daftari” kabi instrumentlar orqali aholi bandligini ta‘minlash, ularni tadbirkorlikka jalb etish va moliyaviy resurslarga kirishini kengaytirishda muhim vositaga aylanmoqda [14].

-Hududiy rivojlanishdagi funksional ahamiyati – mahalla mahalliy iqtisodiy muammolarni aniqlash, ularni manzilli hal etish va hududiy dasturlarni amalga oshirishda operativ boshqaruv darajasi sifatida ishtirok etadi. Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlanishicha, mahalla institutining iqtisodiy integratsiyadagi samaradorligi quyidagi omillar bilan bevosita bog‘liq: raqamlashtirish darajasi, boshqaruv kompetensiyalari, moliyaviy mustaqillik darajasi va idoralararo integratsiya mexanizmlarining rivojlanganligidir. Ayniqsa, “raqamli mahalla” konsepsiyasini joriy etish orqali ma‘lumotlar asosida qaror qabul qilish tizimini shakllantirish iqtisodiy integratsiya samaradorligini sezilarli darajada oshirishi aniqlangan [15]. Ilmiy umumlashtirish asosida ushbu yo‘nalishlar tizimlashtirilib, mahalla institutining iqtisodiy integratsiyadagi asosiy funksiyalari, ularni amalga oshirish mexanizmlari hamda kutilayotgan iqtisodiy natijalari o‘zaro bog‘liq holda quyidagi jadvalda aks ettiriladi.

1-jadval

Mahalla institutining iqtisodiy integratsiyadagi funksional tahlili

№	Yo‘nalish	Asosiy mazmuni	Mexanizm (qanday ishlaydi)	Iqtisodiy ta‘siri	Ilmiy izoh
1	Gibrid institut sifatida mahalla	Mahalla davlat, jamiyat va bozor o‘rtasidagi integratsion tizim sifatida faoliyat yuritadi	Davlat siyosati + norasmiy ijtimoiy aloqalar uyg‘unligi orqali boshqaruv amalga oshiriladi	Resurslar samarali taqsimlanadi, iqtisodiy qarorlar tezlashadi	Mahalla rasmiy va norasmiy institutlar integratsiyasiga asoslangan model hisoblanadi
2	Ijtimoiy kapital shakllanishi	Ishonch, hamkorlik va qo‘shnichilik munosabatlari iqtisodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlaydi	Hashar, o‘zaro yordam, norasmiy moliyaviy tizimlar orqali amalga oshadi	Tranzaksiya xarajatlari kamayadi, iqtisodiy faollik oshadi	Ijtimoiy kapital iqtisodiy o‘shishning muhim omili sifatida baholanadi
3	Bandlikni ta‘minlash	Mahalla orqali aholi bandligini oshirishga qaratilgan dasturlar amalga oshiriladi	Hokim yordamchilari, kasbga o‘qitish, ishga joylashtirish mexanizmlari	Ishsizlik kamayadi, daromad manbalari kengayadi	Mahalla bandlikni ta‘minlovchi asosiy institutsional mexanizmlardan biri
4	Tadbirkorlikni rivojlantirish	Oilaviy biznes va kichik tadbirkorlik qo‘llab-quvvatlanadi	Subsidiya, kredit, grantlar mahalla orqali yetkaziladi	Yangi bizneslar paydo bo‘ladi, iqtisodiy o‘shish tezlashadi	Mahalla iqtisodiy faollikni rag‘batlantiruvchi platforma hisoblanadi
5	Resurslarni manzilli taqsimlash	Ijtimoiy va iqtisodiy yordam aniq ehtiyojga qarab beriladi	“Mahallabay” tizim, ro‘yxatlar (daftarlar) orqali aniqlanadi	Samarasiz xarajatlar kamayadi, ijtimoiy adolat oshadi	Mahalla davlat resurslarini samarali yo‘naltirish imkonini beradi

6	Hududiy rivojlanish	Mahalla hududiy muammolarni aniqlash va hal etishda ishtirok etadi	Infratuzilma loyihalari, jamoatchilik ishtiroki	Hududlar o‘rtasidagi farqlar kamayadi	Mahalla lokal boshqaruvning asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi
7	Raqamli integratsiya	Mahalla tizimi raqamli platformalar orqali boshqarilmoqda	“Onlayn mahalla” va davlat tizimlari integratsiyasi	Shaffoflik va tezkorlik oshadi	Raqamli boshqaruv iqtisodiy samaradorlikni oshiradi
8	Ijtimoiy himoya mexanizmi	Aholining ehtiyojmand qatlamlarini aniqlash va qo‘llab-quvvatlash	Mahalla darajasida monitoring va ro‘yxatga olish	Kambag‘allik kamayadi, ijtimoiy barqarorlik oshadi	Mahalla ijtimoiy siyosatning amaliy instrumenti hisoblanadi
9	Institutsional ko‘prik funksiyasi	Davlat va bozor o‘rtasida vositachilik qiladi	Davlat dasturlari → mahalla → aholi → bozor	Integratsiya kuchayadi, iqtisodiy tizim yaxlitlashadi	Mahalla iqtisodiy integratsiyaning lokal mexanizmi hisoblanadi
10	Inklyuziv iqtisodiy o‘sinh	Jamiyatning barcha qatlamlarini iqtisodiy tizimga jalb etadi	Mahallabay yondashuv, individual ishlash	Tengsizlik kamayadi, barqaror o‘sinh ta’minlanadi	Mahalla inklyuziv rivojlanish modeli sifatida baholanadi

Ushbu jadval tahlilidan ko‘rinib turibdiki, mahalla instituti iqtisodiy integratsiya jarayonlarida ko‘p funksiyali va strategik ahamiyatga ega bo‘lgan institut hisoblanadi. U davlat va bozor o‘rtasida vositachi bo‘lish bilan birga, ijtimoiy kapitalni iqtisodiy resursga aylantiruvchi va mahalliy rivojlanishni ta’minlovchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyatini bir nechta muhim jihatlarida namoyon etdi.

Birinchidan, mahalla davlat va bozor o‘rtasidagi institutsional vositachilikni ta’minlaydi. Bu holat iqtisodiy siyosat samaradorligining hududiy darajada oshishiga xizmat qiladi. Chunki iqtisodiy qarorlarning real natijasi ularning joylarda qanday implementatsiya qilinishiga bog‘liq. *Ikkinchidan*, mahalla ijtimoiy kapitalni iqtisodiy resursga aylantiradi. Bozor tizimining samarali ishlashi ko‘p jihatdan ishonch, axborot almashinuvi va hamkorlik muhiti bilan chambarchas bog‘liq. Mahalla aynan ana shu yumshoq institutsional infratuzilmani yaratadi. *Uchinchidan*, mahalla inklyuziv iqtisodiy o‘sinh mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. U iqtisodiy imkoniyatlardan chetda qolgan qatlamlarni bozor munosabatlariga jalb etadi, natijada iqtisodiy tengsizlikni yumshatish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Biroq, ayrim cheklovlar ham aniqlangan. Jumladan, hududlar kesimida institutsional salohiyatning notekisligi, raqamli infratuzilmaning yetarli emasligi, ayrim hollarda norasmiy institutlarning subyektivlikka moyilligi mahallaning iqtisodiy integratsiyadagi samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shu sababli mahalla tizimini yanada takomillashtirishda professional boshqaruv, raqamlashtirish, shaffoflik va hisobdorlik tamoyillarini kuchaytirish zarur.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, mahalla instituti O‘zbekiston sharoitida iqtisodiy integratsiya jarayonlarining strategik institutsional mexanizmlaridan biri hisoblanadi. U davlat, bozor va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni uyg‘unlashtirish, resurslarni manzilli taqsimlash, aholi bandligini ta’minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish va hududiy muammolarni bartaraf etishda muhim rol o‘ynaydi. Mahalla institutining eng muhim ustunligi uning gibrad tabiatida namoyon bo‘ladi. Ya’ni, u rasmiy boshqaruv vositalari bilan norasmiy ijtimoiy kapitalni birlashtirgan holda iqtisodiy siyosatning joylardagi samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, mahalla iqtisodiy integratsiyaning

inklyuziv modelini shakllantirishga, ya’ni iqtisodiy imkoniyatlarni jamiyatning keng qatlamlariga yetkazishga xizmat qiladi. Kelgusida mahalla institutining iqtisodiy integratsiyadagi rolini kuchaytirish uchun quyidagi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq: mahalla boshqaruvida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish; kadrlar salohiyatini va strategik boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish; shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlarini mustahkamlash; mahallaning iqtisodiy tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlovchi moliyaviy instrumentlarni kengaytirish; hududlararo rivojlanish tafovutlarini kamaytirish.

Demak, mahalla instituti iqtisodiy integratsiyaning nafaqat amaliy, balki strategik institutsional modeli sifatida ham ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.12.2023 yildagi «Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-209-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13.06.2024 yildagi «Mahallalar faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi 334-son qarori.
3. North D. C. *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
4. North D. C. “Institutions” // *Journal of Economic Perspectives*. – 1991.
5. Putnam R. D. *Making Democracy Work: Civic Traditions in Modern Italy*. – Princeton, 1993.
6. Fukuyama F. *Trust: The Social Virtues and the Creation of Prosperity*. – New York, 1995.
7. Fukuyama F. *Social Capital and Development*. – 2001.
8. Acemoglu D., Robinson J. *Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty*. – New York, 2012.
9. Ostrom E. *Governing the Commons: The Evolution of Institutions for Collective Action*. – Cambridge, 1990.
10. Ostrom E. *Institutional Analysis and Development Framework*.
11. United Nations. *Local Governance and Community Development*. – New York, 2022.
12. World Bank. *Community-Driven Development: Principles and Practice*. – Washington DC, 2021.
13. OECD. *The Contribution of Local Governance to Regional Development*. – Paris, 2022.
14. Urinboyev R. Mahalla (Uzbekistan) // *Global Informality Project Encyclopedia*. – 2023.
15. Akhatova Sh. A. Mahalla-Based Small Business Development // *American Journal of Economics and Business Management*. – 2025.